

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**AKADEMIK MOBILLIKNI TASHKIL ETISH VA KREDITLARNI  
TAN OLISH TARTIBLARI BO'YICHA (TA'LIM TO'G'RISIDA)  
KELISHUV**

№ \_\_\_\_\_

“ ” 20 yil

Akademik mobillikni tashkil etish va kreditlarni tan olish tartiblari bo'yicha (ta'lism to'g'risida) kelishuv (*keyingi o'rirlarda - Kelishuv*) O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (*keyingi o'rirlarda - Jo'natuvchi muassasa*) nomidan rektori ..... (*keyingi o'rirlarda - Qabul qiluvchi muassasa*) nomidan rektor ..... hamda akademik mobillik dasturiga kiritilgan Jo'natuvchi muassasaning kunduzgi ta'limg shakli, ..... tahlil oluvchi talaba – ..... (*keyingi o'rirlarda - Talaba*) o'rtasida tuzildi.

**I. KELISHUVNING MAQSADI**

Kelishuvning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda akademik mobillikni tashkil etish va kreditlarni tan olish tartiblarini belgilashdan iborat.

**II. KELISHUV PREDMETI**

Kelishuv predmetini akademik mobillikni tashkil etish, uning ishtirokchilarini tomonidan akademik mobillik davrida belgilangan ta'limg elementlari (nazariy ta'limg mashg'ulotlari, kurs ish, malakaviy amaliyot, mustaqil ta'limg, attestatsiyalar va boshq.)ni o'zlashtirish shartlari hamda natijalar bo'yicha kreditlarni tan olish tartiblari tashkil etadi.

**III. AKADEMIK MOBILLIKNING TASHKILIY SHARTLARI**

3.1. Akademik mobillikni ta'minlash, kreditlarning tan olinishi, ta'limg olish natijalarini aks ettirish hamda oliy ta'limg muassasalar o'rtasida ko'chirib o'tkazish uchun quyidagi hujjatlar asos hisoblanadi:

- ✓ fanlar katalogi;
- ✓ belgilangan shakldagi ta'limg to'g'risidagi kelishuv va ma'lumotnomasi.

**Fanlar katalogi** – oliy ta'limg muassasasi tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, tegishli bakalavriat ta'limg yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi, xizmatlar va resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'limg dasturlari elementlari tavsifi to'g'risidagi hujjat.

**Ta'limg to'g'risidagi kelishuv** – akademik mobillikni tashkil etish, uning ishtirokchilarini tomonidan akademik mobillik davrida belgilangan ta'limg elementlari (nazariy ta'limg mashg'ulotlari, kurs ish, malakaviy amaliyot, mustaqil ta'limg, attestatsiyalar va boshq.)ni o'zlashtirish shartlari hamda natijalar bo'yicha kreditlarni tan

olish tartiblarni belgilovchi hamda uni imzolovchi tomonlarga muayyan huquq va majburiyatlar yuklovchi huquqiy hujjat.

**Ta’lim to‘g‘risidagi ma’lumotnoma** – akademik mobillik davrida talaba tomonidan ta’lim elementlarini o‘zlashtirish natijalari, to‘plagan kredit miqdori, baholash tizimini aks ettiruvchi hujjat.

3.2. Talaba tomonidan o‘zlashtiriladigan ta’lim elementlari to‘plami Jo‘natuvchi va Qabul qiluvchi muassasalar ta’lim dasturlariga mazkur Kelishuvga ilova qilinadigan ta’lim yo‘nalishi fanlar katalogi doirasida integratsiyalanadi va ulardan tashqarida bo‘lishi mumkin emas.

3.3. Talaba tomonidan akademik mobillik davrida Qabul qiluvchi muassasada o‘zlashtirilgan ta’lim elementlari bo‘yicha to‘plangan kreditlar Jo‘natuvchi muassasadagi ta’lim olish natijalariga muvofiq o‘zlashtiriladigan kreditlar miqdoriga teng hisoblanadi.

3.4. Talabaning akademik mobillik davrida o‘zlashtirilishi belgilangan ta’lim elementlari Jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasi tomonidan taqdim etilgan Fanlar katalogi va ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi asosida belgilanadi.

3.5. Jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasining roziligidiz va u bilan kelishmasdan Talabaning akademik mobillik davrida o‘zlashtirilishi belgilangan ta’lim elementlarini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.6. Mazkur Kelishuvning amal qilish muddati va tashkil etiladigan akademik mobillik dasturi davomiyligi **bir semestr, 2023/2024 o‘quv yili yozgi semestridan iborat bo‘lib, 2024 yilning \_\_\_\_\_ dan, 2024 yilning \_\_\_\_\_ ga** qadar davom etadi.

#### **IV. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI:**

##### **4.1. Jo‘natuvchi muassasa zimmasidagi majburiyatlar:**

Qabul qiluvchi muassasa va Talabaga ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha akademik mobillik dasturi o‘tkaziladigan o‘quv semestri bo‘yicha fan katalogi hamda Kelishuv loyihasini taqdim etish;

tomonlar ishtirokida Kelishuvni rasmiylashtirish;

Talabani Qabul qiluvchi muassasaga akademik mobillik dasturida ishtirok etishiga ruxsat berish to‘g‘risidagi muassasa buyrug‘ini qabul qilish;

Talabaga belgilangan shakldagi transkript va yo‘llanma xati taqdim etish;

mobillik davrida Talabaning o‘zlashtirgan (to‘liq yoki qisman) kreditlarini, shu jumladan, Qabul qiluvchi muassasada o‘qitiladigan tanlov fanlari bo‘yicha kreditlarni ham tan olish hamda ularni kelgusida Talabaning oliy ta’lim dasturini o‘zlashtirganligi bo‘yicha hujjatlarga kiritish;

Talabaning mobillik davrida to‘plangan kreditlar miqdoridan kelib chiqqan holda amaldagi tartib-qoidalar asosida uni keyingi kursga o‘tkazish yoki kursda qoldirishni belgilash hamda bu boradagi javobgarlikni to‘liq o‘z zimmasiga olish;

qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlar.

##### **4.2. Qabul qiluvchi muassasa zimmasidagi majburiyatlar:**

mobillik dasturi bo‘yicha rejalashtirilgan ta’lim elementlarini o‘zlashtirish uchun Talabani belgilangan shakl asosida ro‘yxatdan o‘tkazish va rektor buyrug‘i bilan rasmiylashtirish;

rektor buyrug‘ida Talabaning akademik mobillik davrida ishtirok etishi ko‘zdautilgan o‘quv dasturlari, o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan ta’lim elementlarini ko‘rsatish;

akademik mobillik davrida talaba tomonidan ta’lim elementlarini o‘zlashtirish uchun zarur imkoniyatlar yaratish, shu jumladan, adaptasion tadbirlarni tashkil etish;

akademik mobillik davridagi semestr uchun o'quv rejasida akademik farq sifatida aniqlangan fanlardan ta'lif elementlarini Jo'natuvchi muassasa tomonidan taqdim etiladigan o'quv dasturlari asosida o'zlashtirishga sharoit yaratish va o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish;

talabaga akademik mobillik dasturlarida bepul ishtirok etishiga, axborot-resurs markazi va ta'limga oid boshqa moddiy-texnik bazasidan bepul foydalanishga sharoit yaratish;

talabaga akademik mobillik davrida yashash joyi va boshqa maishiy muammolarni hal qilishiga yordam ko'rsatish;

akademik mobillik dasturi yakunida Jo'natuvchi muassasaga talabaning ta'lif elementlarini o'zlashtirganligini tasdiqlovchi va ta'lif olish natijalari ko'rsatilgan ta'lif to'g'risidagi ma'lumotnomasi taqdim etish;

qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlar.

#### **4.3. Talaba zimmasidagi majburiyatlar:**

Jo'natuvchi muassasa tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni belgilangan tartibda va muddatda Qabul qiluvchi muassasaga taqdim etish;

Qabul qiluvchi muassasa ichki tartib-qoidalari va odob-axloq qoidalariga qat'iy rivoja qilish;

akademik mobillik dasturi davomida Jo'natuvchi muassasa ma'sul xodimlari bilan muntaazam aloqada bo'lish;

akademik mobillik dasturi davomida Jo'natuvchi muassasa oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarib borish;

akademik mobillik dasturi davridagi to'lov-kontrakt to'lovini shartnomada belgilangan muddatlarda Jo'natuvchi muassasa hisob-raqamiga to'lash;

Qabul qiluvchi muassasada akademik mobillik dasturiga kiritilgan ta'lif elementlari hamda mazkur Kelishuvda ko'rsatilgan xizmatlardan boshqa dasturlar va xizmatlardan foydalanilgan holda, belgilangan to'lovlarini Qabul qiluvchi muassasaga qoplash;

qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlar.

### **V. TOMONLARNING HUQUQLARI**

Kelishuvni imzolagan tomonlar bir-birlari oldidagi majburiyatlar doirasida kelib chiqadigan huquqlarga egadirlar.

Tomonlar mazkur Kelishuvda va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham egadirlar.

### **VI. YAKUNIY QOIDALAR**

Tomonlarning qo'shimcha kelishuvi asosida akademik mobillik dasturi muddatini uzaytirilgan taqdirda, mazkur Kelishuvga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi. Bunda tomonlarning biri kamida 1 (oy) oldin Kelishuvning boshqa taraflarini yozma ravishda ogohlantirishi shart.

Mazkur Kelishuvda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqadigan nizolar tomonlarning o'zaro muhokamasi asosida hal qilinadi.

Ta'lif jarayoniga oid, lekin mazkur Kelishuvda nazarda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

Mazkur Kelishuvda belgilangan qoidalari O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining, shuningdek ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan qoida va me'yorlarga zid kelsa, yuqori turuvchi organlarda belgilangan qoida va me'yorlar amal qiladi.

## VII. TOMONLARNING REKVIZITLARI

**Ta'lim muassasasi:** O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Pochta manzili:** Toshkent shahri, Kichik Xalqa yo'li ko'chasi, G-9<sup>A</sup> mavzesi, 21-uy

**SHHR:**  
400910860262627094100079001

**INN:** 201669664

**H/r:** Moliya vazirligi  
G'anzachiligi,  
23402000300100001010

**INN:** 201122919. **MFO:** 00014  
HKKM MB Bosh boshqarmasi

**Ta'lim muassasasi:**

**Pochta manzili:**

**SHHR:**

**INN:**

**MFO:**

**Rektor** \_\_\_\_\_  
**H/r:** \_\_\_\_\_  
**INN:** \_\_\_\_\_  
**MFO:** \_\_\_\_\_  
**Rektor** \_\_\_\_\_

Talaba

Yashash manzili :

Pasport ma'lumotlari:

**Rektor** \_\_\_\_\_  
**I.M.Tuxtasinov**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT  
JAHON TILLARI  
UNIVERSITETI**

100173, Toshkent sh., Kichik Halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi,  
21-uy, Tel: (71) 230-12-91, e-mail: [uzdju\\_d@edu.uz](mailto:uzdju_d@edu.uz),  
[uzgumya@exat.uz](mailto:uzgumya@exat.uz), [uzgumya1@exat.uz](mailto:uzgumya1@exat.uz)



**MINISTRY OF HIGHER  
EDUCATION, SCIENCE AND  
INNOVATIONS OF  
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**UZBEKISTAN STATE  
UNIVERSITY OF WORLD  
LANGUAGES**

100173, Tashkent, Kichik Halqa yo'li str.,  
G-9A-21, Ph: (71) 230-12-91, e-mail: [uzdju\\_d@edu.uz](mailto:uzdju_d@edu.uz),  
[uzgumya@exat.uz](mailto:uzgumya@exat.uz), [uzgumya1@exat.uz](mailto:uzgumya1@exat.uz)

20 \_\_\_\_ yil “ \_\_\_\_\_ ”

No \_\_\_\_\_

**Universitet nomi-----**

**Hurmatli -----!**

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 3-oktyabrdagi 81/b-sonli buyruqlariga asosan Samarqand davlat chet tillar instituti 5120100 Filologiya va tillarni o'qitish (yapon tili) ta'lif yo'nalishi 4-kurs talabasi ..... 2023-2024 o'quv yili 4-kurs 7-semestrini O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Sharq fakulteti 5120100- Filologiya va tillarni o'qitish (yapon tili) ta'lif yo'nalishida akademik mobillik dasturi doirasida davom ettirganligi va ta'lif yo'nalishining o'quv rejasidagi fanlarni o'zlashtirganligini ma'lum qilamiz.

**REKTOR**

*Ijrochi:  
Tel:*